

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA MAVLUDA ZULQANDAR QIZI**

**TURKISTON, BUXORO VA XIVA JADIDLARINING DAVLAT VA  
HUQUQ HAQIDAGI QARASHLARI**

**12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi**

**Yuridik fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)**

**Ergasheva Mavluda Zulqandar qizi**

Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari...3

**Эргашева Мавлуда Зулкандар қизи**

Взгляды джадидов Туркестана, Бухары и Хивы о государстве и праве.....27

**Ergasheva Mavluda Zulkandar kizi**

Views of the djadids of Turkestan, Bukhara and Khiva on the state and law ....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published woks.....57

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA MAVLUDA ZULQANDAR QIZI**

**TURKISTON, BUXORO VA XIVA JADIDLARINING DAVLAT VA  
HUQUQ HAQIDAGI QARASHLARI**

**12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi**

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) Dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Yu251 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti ([www.mgixu.uz](http://www.mgixu.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy konsultant:**

**Tashkulov Juraboy O'rinboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Saidov Akmal Xolmatovich**  
yuridik fanlar doktori, akademik

**Boboyev Halimboy**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Axmedova Muqaddaxon Tursunovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "14" 10 kuni soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni. Tel.: (+99871) 230-32-71; faks: (+99871) 230-32-50, Jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2953 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil:100109, Toshkent., Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni. Tel.: (+99871) 230-32-71; faks: (+99871) 230-32-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 30.09 kuni tarqatildi.  
(2024-yil 30.09 dagi 1-raqamli reyest bayonnomasi)



**M.X.Rustambayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**J.D.Axmedov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**M.B.Usmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda tobora chuqurlashib borayotgan globallashuv jarayoni sharoitida taraqqiyparvar va ma'rifatparvar jadidlarning keng qamrovli merosini o'rganish, tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida qayd etganidek: "Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz "Inson qadri va manfaatlari uchun" degan ezgu g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil ilgari bormoqda"<sup>1</sup>. Inson qadri ulug'lanayotgan bizning jamiyatimizda "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim"<sup>2</sup>. Ayniqsa, "Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosini tadqiq etish"<sup>3</sup> dolzarb vazifalardandir.

Jahondagi yetakchi ilmiy markazlarda Turkistonda XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning tugatilishi, taraqqiyparvarlar tomonidan yangi usuldagi zamonaviy maktablar, uyushmalar, jamiyatlar, tashkilotlar tashkil etilganligi, ularning maqsad va vazifalari, millat xodimlarining ta'limiy, nashriyot – matbuotchilik, teatrchilik sohasidagi faoliyatlariga doir masalalar yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jadidchilik harakati nafaqat Turkiston hududida, shuningdek, butun musulmon dunyosida, qolaversa, jahon tarixida o'chmas iz qoldirgani bois, ushbu muhim mavzuda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarni muntazam ravishda o'tkazib turish, arxiv hujjatlaridan foydalanish imkoniyatlarini tobora kengaytirish, yangicha ilmiy, badiiy va publisistik asarlar yaratish, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun maqsadli grantlar e'lon qilish, xorijiy ilm-fan markazlari, hujjatgohlar, fondlar va muzeylar, kutubxonalar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish choralari ko'rilmoqda.

O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, axloqiy-ma'naviy va huquqiy sohalarida butunlay yangi sahifalar ochdi. Boy ma'naviy va madaniy merosi bilan haqli ravishda g'ururlanish hissi xalqni o'zligini teran anglashiga olib kelmoqda. Buyuk mutafakkirlarimizning qimmatli ilmiy-ijodiy, g'oyaviy ijtimoiy merosini chuqur o'rganish, ular mazmun-mohiyatini xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy mulkiga aylantirish, siyosiy, davlat-huquqiy qarashlarini hamda g'oyalarini tadqiq va targ'ib qilish istiqlolimizning qadriyatlariga uyg'un milliy davlatchiligimiz

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бosh Ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/6677> 20.09.2023.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Тошкент: O'zbekiston. 2021. – В. 225.

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маърифатпарвар жадидчилик ҳаракати намоёндаларини муқофотлаш тўғрисида" 2020 йил 30 сентябрдаги Фармони // Халқ сўзи. 2020 йил 1 сентябрь.

siyosatiga aylandi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida esa bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda, inson qadri ulug‘lanadigan, barpo etilajak erkin va adolatli fuqarolik jamiyatimizda buyuk mutafakkirlarimiz, ayniqsa, jadid bobolarimiz tomonidan yaratilgan ezgu g‘oyalar va qarashlarni hamda teran mulohazalarni chuqur o‘rganish, tadqiq etish, ularni yoshlarimizga targ‘ib qilish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirdagi 2023), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida”gi (2001), “Ma‘rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonlari (2020), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi (1999), “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi (2020), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Abdurauf Fitrat tavalludining 110 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi (1996), “Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi (1999) qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta‘lim muassasalari tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2017), “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2022) qarorlari va boshqa shu kabi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>1</sup>.** Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning tugatilishi, taraqqiyparvarlar tomonidan yangi usuldagi zamonaviy maktablar uyushmalar, jamiyatlar, tashkilotlar tashkil etilgani, ularning maqsad va vazifalari, millat xodimlarining ta‘limiy, nashriyot-matbuotchilik, teatrlik sohasidagi faoliyatlariga doir ilmiy tadqiqotlar xorijda, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida keng tadqiq etilgan va izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, Michigan davlat universiteti (AQSH), Berlin universiteti (Germaniya), Marmara universiteti (Turkiya), Channakale universiteti (Turkiya), Anqara universiteti (Turkiya), G‘oziy universiteti (Turkiya), Ozarbayjon tillar universiteti (Ozarbayjon Respublikasi), Tojikiston davlat milliy universiteti (Tojikiston Respublikasi), Hoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti (Qozog‘iston Respublikasi), Qozog‘iston Davlat tarixi instituti (Qozog‘iston Respublikasi),

---

<sup>1</sup> Ushbu ishlar ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

R.B.Suleymenov nomli Qozog‘iston Respublikasi sharqshunoslik instituti (Qozog‘iston Respublikasi), B.Jamgerchinov nomidagi Qirg‘iziston Milliy fanlar akademiyasi (Qirg‘iziston Respublikasi) kabi xalqaro, ilmiy va ta‘lim muassasalarida amalga oshirilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda jadidlarning ma‘rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari va Turkiston taraqqiyotiga qo‘shgan hissasiga doir masalalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, ular tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida jadidlarning chet eldagi to‘ng‘ich maorif uyushmasi (Michigan davlat universiteti); musulmon dunyosidagi islohotchilik va yangilanish jarayonida O‘rta Osiyo jadidchilik harakati (Berlin universiteti), Turkiston va Volgabo‘yi madrasalarida ta‘lim va islohot (Marmara universiteti); jadidchi Fitratning tilni tushunish va uning til maktablardagi o‘rni (Channakale universiteti); o‘zbek jadidchiligining islom tarixiga qarashi (Anqara universiteti); turkistonlik jadidchilarning ta‘limiy faoliyatlari (G‘oziy universiteti); turk dunyosida jadidchilik faoliyatlari va ta‘limga kiritilgan yangiliklar (Ozarbayjon tillar universiteti); Buxoro amirligida jadidlarning madaniy-ma‘rifiy g‘oyalari (Tojikiston davlat milliy universiteti); Turor Risqulovning Germaniya epopeyasi (Hoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti); XX asrda Turkiston jadidlari (Qozog‘iston Davlat tarixi instituti); Mustafo Cho‘qay va jadidchilik:ilm-ma‘rifat orqali Turkiston birligi g‘oyasi (R.B.Suleymenov nomli Qozog‘iston Respublikasi sharqshunoslik instituti); XX asr boshlarida qirg‘iz ziyolilari va jadidchilik harakati (B.Jamgerchinov nomidagi Qirg‘iziston Milliy fanlar akademiyasi) to‘g‘risidagi xulosalar shakllantirilgan va asoslantirilgan.

Jahonda jadidlarning ma‘rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari va Turkiston taraqqiyotiga qo‘shgan hissasiga doir masalalar bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: jadidlarning xorijdagi maorif uyushmalari, turk dunyosida jadidchilik faoliyatlari va ta‘limdagi islohotlar, jadidlarning madaniy-ma‘rifiy g‘oyalari, turkistonlik jadidlarning ta‘limiy faoliyatlari, jadid milliy ta‘lim-tarbiya dasturlari, milliy matbuotda jadidchilik g‘oyalari, jadidlar ishlab chiqqan loyihalarning tarixiy ahamiyati va ularning jadidchilik tarixidagi o‘rni va boshqalar.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jadid mutafakkirlarining hayoti, serqirra ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga ko‘p olimlar va tadqiqotchilar ahamiyat bergan. Ayniqsa, O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, o‘zbekistonlik tadqiqotchilar jadidlarning hayoti va keng qamrovli merosini o‘rganish, targ‘ib va tashviq etishda muhim ishlarni amalga oshirdilar. Bevosita, jadidlar va ularning ijodiga tarixchilar, adabiyotchilar, faylasuflar va boshqa ijtimoiy-gumanitar fan namoyandalari ahamiyat berib kelmoqdalar. Bizning ilmiy ishimizda jadidlarning davlat-huquqiy qarashlarini o‘rganish muammolari ilk bor ilmiy-nazariy umumlashtirilgan, biroq aytish lozimki muammoning ba‘zi ilmiy-nazariy jihatlari tarixchi olimlardan S.Inoyatov, R.Shamsutdinov, S.A‘zamxo‘jayev, B.Hasanov, H.Sodiqov, R.Abdullayev, D.Alimova, L.Muhammadjonova, adabiyotshunos olimlardan N.Karimov, O.Sharafiddinov, B.Qosimov, H.Boltaboyev, M.Qurbonova, I.G‘aniyev, faylasuf olimlardan X.Vaxidov B.Ergashev, Sh.G‘oibova, G.Mahmudova, huquqshunos olimlardan A.Ishanov, I.Zokirov J.Tashkulov, N.Azizovlarning tadqiqotlarida o‘z aksini

topgan.

MDH olimlaridan Shodmon Vohidov, No‘monjon Gafarov, Rustam Sotvoldiyev (Tojikiston), Vilayet Muhtar o‘g‘lu Guliyev, Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon), Salik Zimanov, Xazretali Tursun Maxanula, Kemenger Kayirbek Rizabekuli, Alima Auanasova, Gauxar Tileykulov (Qozog‘iston), Ramil Adigamov (Tatariston), Aida Kubatova (Qirg‘iziston) kabilar jadidlar faoliyatiga oid salmoqli tadqiqotlar olib bordilar.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on, Mahmud Saroy, Boymirza Hayit, Ibrohim Yorqin, Temir Xo‘ja o‘g‘li, Xisao Ko‘matsu, Edvard Ollvord, F.Kupruli, Elen Karrer d‘Enkos, Ingeborg Baldauf, Adib Xolid va boshqalarning qalamiga mansub ilmiy tadqiqotlarni misol keltirish mumkin.

Jadid mutafakkirlar hayotlik chog‘idayoq zamondoshlari ham ular shaxsi, ijodi hamda faoliyatiga ijobiy va xolis baho berganlar, ayrimlari esa salbiy fikrlar ham bildirishgan. Davlatni huquqiy demokratik tamoyillar asosida boshqarish, adolatli ijtimoiy siyosat olib borish, qonuniylik, huquq-tartibot, huquq, qonun, ustuvorligi, inson huquqlari borasidagi buyuk ajdodlarimizning boy meroslari, davlat-huquqiy ta‘limotlarida mujassamlangan. Mazkur masalalar, ayniqsa, mamlakatimiz o‘zining davlat mustaqilligiga erishgach, qator ilmiy tadqiqotlarda o‘z ifodasini topganligi ham e‘tiborga molikdir<sup>1</sup>.

Aytish joizki, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda “Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari” bilan bog‘liq ilmiy-nazariy va amaliy masalalar kompleks tadqiq etilmagan.

Jadidlarning boy ilmiy merosini o‘rganilishi hamda ular davri bilan bog‘liq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jadid mutafakkirlar xalqning davlat va huquq haqidagi tafakkurini boyitib rivojlanishiga ham salmoqli hissa qo‘shganlar. Ammo, ularning bunday mezonda o‘rganilmagani bizni shu yo‘nalishda tadqiqot olib borishga taqozo qildi. Jadid mutafakkirlarning davlat va huquq haqidagi qarashlarini har tomonlama umumlashtirib haqqoniy o‘rganib chiqish va ular ijodini noto‘g‘ri talqin tadqiqotlardan xalos etish, shu vaqtgacha tadqiq etilmagan noma‘lum jihatlarini chuqur o‘rganish va tadqiq etish uchun shu mavzu tanlandi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilotning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022–2027-yillarda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishni Istiqbolli rejasining 2.11-bandiga muvofiq “Davlat boshqaruvi sohasida demokratik institutlarning rolini yanada oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish, huquqiy davlat mexanizmlarini modernizatsiyalash borasida nazariy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish” mavzusidagi ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Turkiston, Buxoro, Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlarini o‘rganishning ilmiy-metodologik asoslarini, jadidlarning davlat va huquq haqidagi qarashlaridan foydalanishning ilmiy- nazariy va amaliy jihatlarini, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>1</sup> Ushbu olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.



inson huquqi va erkinliklarining ustuvorligi jadidchilikni bosh g'oyasi ekanligini ochib berish;

Konstitutsiya va qonunlar insonning huquqiy maqomini belgilovchi omillar ekanligini ko'rsatish;

sud – huquq masalalari haqidagi jadidlar g'oyalari hamda ularning bugungi kundagi ahamiyatini ochib berish;

oila insonni huquqiy-ma'naviy shakllantiruvchi muqaddas maskan ekanligiga jadidlar e'tiborini chuqur va keng tadqiq qilish;

“Turk Adami Markaziyati partiyasi” dasturida huquqiy g'oyalarni yoritib berish;

“Yosh buxoroliklar partiyasi” dasturida huquqiy davlat qurish g'oyalarini ko'rsatib berish;

“Jadid taraqqiyparvarlar partiyasi”ning dasturida davlat qurilishi muammolari haqidagi g'oyalarini ochib berish;

“Yosh xivaliklar partiyasi”ning ijtimoiy-siyosiy va madaniy islohotchilik g'oyalarini tadqiq etish;

milliy mustaqil demokratik davlat g'oyasi – jadid huquqiy qarashlarining bosh mezoni ekanligini ko'rsatish;

harbiy qurilish va mudofaa tamoyillariga jadid mutafakkirlar e'tiborini aniqlash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining asarlari va maqolalari tanlab olingan.

**Tadqiqot predmeti** jadidlar ilmiy, ijodiy meroslarini o'rganish va tahlil qilish maqsadida tadqiqot obyektini har tomonlama o'rganishga qaratilgan ilmiy vosita va usullardir.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy bilishning qiyosiy-huquqiy tahlil, analiz va sintez, kompleks yondashuv, dialektik, tarixiylik, obyektivlik, izchillik, xolislik, mantiqiylik, tizimli, funksional tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jadid mutafakkirlarining zamonaviy konseptual qarashlari asosida davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi bilan bog'liq normalarni fuqarolarning ijtimoiy-madaniy huquqlari sifatida konstitutsiyaviy qoida darajasida belgilash zarurati asoslab berilgan;

jadidlar dasturida ilgari surilgan soliq va yig'implarning adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmaslik haqidagi g'oya zamonaviy soliq siyosatining asosiy prinsiplari qatoriga kirib, fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy erkinliklarini ta'minlashga hamda davlat boshqaruvida adolatli tizim yaratishga xizmat qilishi asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori asosida milliy tarixni chuqur o'rganish va uni yangi avlodlarga yetkazish uchun muhim platforma yaratib, muzey fondini boyitish, tarixiy xotirani tiklash va arxiv

materiallari orqali tarixiy voqealarni xalq tomonidan haqqoniy anglash imkoniyatlarini kengaytirish zarurati asoslab berilgan;

jadidlarning milliy davlatchiligimiz tarixi va buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat va milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish zarurati, jamiyatni ma'naviy jihatdan boyitish va milliy o'zlikni mustahkamlash yo'lida muhim ilmiy asos sifatida xizmat qilishi asoslab berilgan;

jadid taraqqiyparvarlarning davlat va huquq haqidagi boy g'oyalari va ilmiy merosini talaba-yoshlarga davlat va huquq nazariyasi, huquqiy ta'limotlar tarixi kabi fanlarni o'qitishda qo'llash zarurati, ularning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, huquqiy tafakkurni rivojlantirish va milliy-huquqiy ongni mustahkamlashda muhim ilmiy asos sifatida xizmat qilishi asoslab berilgan;

jadidlarning zamonaviy qarashlaridan kelib chiqib xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi bilan bog'liq normalarni konstitutsiyaviy kafolatlar sifatida belgilash zarurati asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlari davlat va huquq haqidagi qarashlari shakllanishining dialektik, tolerantlik asoslari, obyektiv va subyektiv omillari sharhlangan hamda qiyosiy isbotlangan;

Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlari davlat va huquq haqidagi qarashlari tahlili jarayonida taraqqiyparvarlar dunyoqarashining shakllanishida buyuk mutafakkir Ahmad Donish va Ismoil Gaspralining roli, jadidlar ilmiy-ma'rifiy merosining davlat va huquq nazariyasi; huquqiy ta'limotlar tarixi rivojidagi o'rni tarixiy-huquqiy yondashuv asosida ochib berilgan.

Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlari davlat va huquq haqidagi qarashlari muammosiga doir, mazkur masalaning yechilishiga oid ilmiy-nazariy, huquqiy-metodologik, o'quv-uslubiy, kreativ, innovatsion mazmundagi mustaqil takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ishda qo'llanilgan usullar, nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar, ilmiy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot olib borish jarayonida bildirilgan ayrim takliflar amaliyotga joriy etilganligi va bu tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tganligi, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligi jarayonida, sudlar faoliyati va milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Davlat va huquq nazariyasi", "Davlat va huquq tarixi", "Huquqiy ta'limotlar tarixi", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi", "Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq", "Inson huquqlari" kabi fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, mazkur fanlardan darslik, o'quv va uslubiy-qo'llanmalar, monografiya tayyorlashda foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularning yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekiston fuqarolarining jadidlar davlat va huquq haqidagi bilimlarini kengaytirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlarining aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, jadidlar ilmiy merosini keng targ'ib etishda, "Davlat va huquq nazariyasi", "Davlat va huquq tarixi", "Huquqiy ta'limotlar tarixi", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi", "Inson huquqlari" kabi fanlarni o'qitishda, ommaviy axborot vositalarining ko'rsatuv va media materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlanishiga oid takliflar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi ikkinchi qismida o'z ifodasini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 1-apreldagi 02-03/534-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi Yangi O'zbekistonda jadidlarning davlat boshqaruviga oid hamda ta'limni rivojlanishidagi g'oyalarining bugungi kundagi amaliy ahamiyatiga hissa qo'shgan;

davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlanishiga oid takliflar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasi ikkinchi qismida o'z ifodasini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 1-apreldagi 02-03/534-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlanishi uchun xizmat qilgan;

soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerakligiga oid takliflar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-modda ikkinchi qismida o'z ifodasini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 1-apreldagi 02-03/534-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi O'zbekistonda soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligiga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari fondini boyitishga oid takliflari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 22-noyabrdagi qarorida o'z ifodasini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi*

*huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining 2023-yil 31-oktabrdagi 233-son ma'lumotnomasi*). Natijada taqdim etilgan ilmiy xulosalar, bir qator birlamchi bo'lgan arxiv hujjat materiallari muzey fondi va ekspozitsiyasini boyitishga xizmat qilgan;

milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirishga oid takliflari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti"ga bag'ishlangan 41-bandida foydalanilgan (*Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 17-oktabrdagi 392-son ma'lumotnomasi*). Natijada Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy makonni shakllantirishda, "inson, jamiyat va davlat" o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-huquqiy munosabatni amalga oshirishda jadidlarning davlat va huquq haqidagi ma'naviy merosi, jumladan, inson huquqi va erkinliklari jadidchilikning bosh g'oyasi ekanligi, Konstitutsiya va qonunlar to'g'risidagi ilmiy merosi va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati oshishiga xizmat qilgan;

jadid taraqqiyparvarlarning davlat va huquq haqidagi qarashlari, bu borada boy g'oyalari va ilmiy merosidan talaba-yoshlarga davlat va huquq nazariyasi, huquqiy ta'limotlar tarixi kabi fanlarni o'qitishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2024-yil 29-martdagi 04/1462-son ma'lumotnomasi*). Natijada Buxoro davlat universiteti 5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishini o'quv rejasidagi davlat va huquq nazariyasi, 60310700 – Siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi davlat va huquq nazariyasi, huquqiy ta'limotlar tarixi kabi fanlarning namunaviy va ishchi fan dasturlarini tayyorlashda tadqiqot natijalari va ma'lumotlari ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta respublika, 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan hamda 3 ta ilmiy to'plamlarda nashr etilib, sinovdan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, 18 ta maqola (13 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda, shundan 14 ta ilmiy to'plamlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, o'n to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 242 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Dissertatsiyaning kirish (Dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ahamiyati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Jadidlar davlat va huquq haqidagi qarashlarining shakllanishiga ta’sir etgan ijtimoiy-siyosiy omillar**” deb nomlanib unda “Turkiston jadidlari davlat va huquq haqidagi qarashlarining shakllanishiga omil bo’lgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy shart-sharoit hamda vaziyatlar” ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Dissertatsiyada jadidchilik davlat, tuzum, boshqaruvni, mamlakatda o’rnatilgan siyosiy-huquqiy tartibotlarni o’zgartirish va tubdan isloh qilib, millat va mamlakatni rivojlantirish orqali, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga ko’tarishni qat’iy maqsad qilib qo’ygan ilg’or g’oyalar, aniq amaliy harakat va chora-tadbirlarni o’zida yorqin ifodalagan tizim ekanligi, jadidlar harakati Turkiston o’lkasining XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida siyosiy kuchlar uyg’unlashib ketgan bir davrda eng taraqqiyparvar yo’nalishni o’zida chuqur ifodalanganligi, jadidlar harakati ilk davrdanoq milliy uyg’unish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, ko’proq musulmon maktablarini isloh qilish, o’lka hududida yangi usuldagi maktablar ochish, zamonaviy demokratik muassasalarni yuzaga keltirish, xalqni jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan bahramand etish, umuman, o’ziga xos milliy rivojlanish yo’lidan borishga qaratilganligi o’rganilgan.

Dissertatsiyada chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o’lkasining bosib olinishi va bu yerda mustamlakachilik tartib-qoidalarining qaror topganligi mahalliy xalq turmushining yanada yomonlashuviga olib kelganligi, ular ikki tomonlama-mahalliy amaldorlar va mustamlakachi ma’murlar zulmiga mahkum etilganligi, musulmonlarni, mahalliy xalqni ezish, talash nihoyatda avjiga chiqqanligi ilmiy tahlil etilgan. Chor mustamlakachi ma’murlari zulmi ostida azob chekayotgan, insoniy huquqlardan mahrum etilgan, haq-huquqlari, sha’ni, g’ururi, qadr-qimmat, diniy va milliy his-tuyg’ulari, qadriyatlar behad poymol qilingan mahalliy xalqning, musulmonlarning haqqoniy ahvoli, umuman, o’sha davrda inson ijtimoiy-huquqiy maqomining jadidlar siyosiy-huquqiy qarashlarini shakllanishiga ta’siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan hamda shunday muhim xulosalar chiqarilgan:

**birinchidan**, Turkiston taraqqiyparvarlarining XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida xalq orasida erkinlik, ozodlik, demokratiya, madaniy-ma’rifiy ishlarni keng tarqatishga qaratilgan harakati boshlanib, u jadidlar harakati deb ataladi. Turkistonda jadidchilik harakati vujudga kelishining asosiy omillaridan biri – bu o’lkaning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi oqibatida Turkistonda olib borilgan mash’um mustamlakachilik siyosati. Chor hukumatining har tomonlama, puxta va chuqur o’ylanib, aniq reja asosida izchillik bilan yuritgan, talonchilik va bosqinchilikdan iborat bo’lgan g’oyatda adolatsiz siyosati tufayli Turkistonning xomashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilganligi;

**ikkinchidan**, Turkistonda mustamlakachilik tartib-qoidalarining joriy qilinishi natijasida mahalliy xalq ahvolidan nihoyatda og’irlashuvi hamda ularning ikki tomonlama, bir tomondan – mahalliy amaldorlar, ikkinchi tomondan – mustamlakachi ma’murlar tomonidan jabr-zulmga mahkum etilishi;

**uchinchidan**, chorizm tomonidan Turkiston xalqini mustamlaka asoratiga soluvchi juda ko’plab qonun va nizomlar chiqarilishi va qaror toptirilishi hamda o’zlari istagancha o’zgartirishlari oqibatida o’lka aholisi insoniy va siyosiy huquqlari, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy erkinliklarining behad poymol

etilishi, ularning diniy va milliy his-tuyg'ulari, an'ana va qadriyatlarini oyoqosti qilinishing kuchaytirilishi;

**to'rtinchidan**, chor hukumati Turkiston o'lkasida asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib kelgan, mahalliy xalq ongiga, turmush tarziga singib ketgan qoida va normalarni, boshqarish tartibotlarini mustamlakachilik manfaatlariga hamda siyosiy-huquqiy tartiblariga majburan moslashtirilganligi;

**beshinchidan**, Turkistonda chor hukumati mustamlakachiligi davrida o'tkazilayotgan saylovlardan faqat mustamlakachi ma'murlar hamda ular bilan hamkor va hammaslak mahalliy amaldorlar manfaatdor bo'layotganligi, saylov jarayonlarida firibgarlik, poraxo'rlik, qonunsizlikning nihoyatda avj olganligi, saylov qoidalari mulkdor tabaqalar va mahalliy ma'muriyat manfaatlarini o'zida butunlay ifodalaganligi;

**oltinchidan**, mustamlakachilar tomonidan mahalliy xalqni talash, ezish, xonavayron qilishning nihoyatda kuchayganligi, ayniqsa, aholidan olinadigan soliqlarning yildan-yilga oshib borishi tufayli ular iqtisodiy ahvolidan yanada og'irlashganligi;

**yettinchidan**, chor ma'murlari – mahalliy xalqning ma'naviyatini tahqirlash, tarixiy, madaniy, axloqiy an'analarni buzish, o'lkadagi milliy maktablar va madrasalarni qisqartirish, umuman, musulmonlarni qullikda tutib turish uchun butun choralarni harbiy kuchga tayangan holda zo'rlik bilan amalga oshirayotganligi va hokazolar.

Dissertatsiyada "XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro va Xivada ijtimoiy-siyosiy vaziyat va jadidchilik harakati vujudga kelishining davlat-huquqiy, tarixiy-gnoseologik asoslari: davlatchilik, huquqiy tizim, qonuniylik, tartibot va inson" masalalari o'rganilgan.

Dissertatsiyada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi mavjud muhit, o'ta ziddiyatli va murakkab ijtimoiy-siyosiy hayot mamlakatda jadidlar harakatining paydo bo'lishi va rivojlanishida o'zining katta ta'sirini o'tkazganligi, podsho Rossiyasining XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Amir davlati ustidan hukmronligining o'rnatilishi-mamlakat hayotining turli sohalariga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmaganligi, shuningdek, 1868 va 1873-yillarda Amir davlati va Rossiya davlati o'rtasida tuzilgan shartnomalar oqibatida Buxoro amirligining davlat mustaqilligi tugatilganligi, mazkur rus-buxoro shartnomalariga asosan Rossiyaning Buxoro amirligida siyosiy va iqtisodiy hukmronligi yanada kuchaytirilganligi, shuningdek, 1873-yilda Rossiya imperiyasi bilan Xiva xonligi o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylanganligi, uning davlat mustaqilligiga barham berilganligi, mamlakat tarixida mash'um davr – mustamlaka davri boshlanganligi tahlil qilingan.

Dissertant Buxoroda eng oliy mansablardan biri – qozilik bo'lib, ulardan oliy darajada shayx ul-islom unvoni, keyin qozi ul-quzzot, uchinchisi qozi askar va to'rtinchisi viloyat qozisi bo'lganligi, shu martabalarning ikkinchi pog'onasida muftiy turganligi, uning yuqori darajasi a'lam unvoni hisoblanib, sohibi harbiy yurish va lashkar tortishlar vaqtida fatvo berishi, shuningdek, amirlikda mirshablik lavozimi ham joriy etilgan bo'lib, bosh mirshab o'zining yuzdan ortiq mirshablari va yordamchi ma'murlari bilan shahar tartiboti va himoyasini ta'minlaganligi masalalarini o'rgangan.

Dissertatsiyada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi mavjud murakkab ijtimoiy-siyosiy hayot jadidchilik harakatining paydo bo'lishi hamda rivojlanishda muhim ta'sir ko'rsatgan, degan to'xtamga kelingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Jadidlarning huquqiy qarashlari va ularning mohiyati”** deb nomlangan. Unda “Inson huquqi va erkinliklarining ustuvorligi jadidchilikning bosh g'oyasi” ekanligi, inson huquqi va erkinliklarining muqaddas va oliy qadriyat hisoblanishi, uning har narsadan ustun turishi, bu huquq va erkinliklarni hurmat qilish hamma uchun majburiy ekanligi tahlil qilingan.

Mamlakatimizning Asosiy Qonuni Muqaddimasida xalqning demokratiya va ijtimoiy adolat, inson huquqlariga bo'lgan sadoqati, e'tiqodi mustahkamlab qo'yilgan. Zero, “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”<sup>1</sup>.

Dissertatsiyada xalqning huquqiy tafakkurini boyitishga salmoqli hissa qo'shgan atoqli jadid mutafakkirlari – Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo'jayev hamda ularga hammaslak va hamfikr boshqa ziyolilarning o'z davrida inson huquqi va erkinliklari, ularni ta'minlash to'g'risida qoldirgan boy g'oyalari tadqiq etilgan.

Jadid mutafakkirlarning o'z davridayoq inson taqdiriga, uning erki va asosiy huquqlariga loqaydlik bilan qarab bo'lmasligi, ularni hurmat qilish jamiyat barcha a'zolari uchun sharaflilik va muqaddas burch ekanligi, insonlar har qanday din, mazhab va millatlaridan qat'i nazar, bir otaning farzandi, bir-birlariga birodar ekanliklari va teng huquqqa ega bo'lishlari kabi dolzarb masalalarda qoldirgan bilimlari va ta'limotlari tahlil qilingan.

Dissertant jadid mutafakkirlarning, jumladan, Abdurauf Fitrat, Maxmudxo'ja Behbudiy, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov va ular hammaslaklarining mamlakatda yuqori lavozimlarni egallagan mansabdor shaxslarning o'z faoliyatlarida qonuniylik va adolatni ta'minlashlari, davlat boshqaruvining tashkil etilishi, uning qonun-qoidalarini mukammal bilishlari, inson haq-huquqlarini muqaddas darajada hurmat qilishlari borasidagi qarashlarini umumlashtirgan.

Inson huquqlarining haqiqiy himoyachisi jadidlar – insonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ilm olish huquqi, diniy va dunyoviy ishlarni bajarish uchun voyaga yetgan har bir o'g'il-qiz muayyan kasbni egallashi, mehnat qilishi, eng avvalo, ilmni puxta egallashlari to'g'risida qoldirgan, bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan g'oyalari ishda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangan.

Dissertatsiyada jadid mutafakkirlarning inson huquqi va erkinliklari, ilm olish huquqi, barcha fuqarolarning bilim olishda teng huquqlarga ega bo'lishlari, ilm-fanni rivojlantirish to'g'risidagi g'oyalari – Respublikamizda tub ma'rifiy islohotlar olib borilayotgan hozirgi davrda qimmatli ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan.

Ikkinchi qism “Konstitutsiya va qonunlar – insonning huquqiy maqomini

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. II bob, 13-modda. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

belgilovchi omillar” deb nomlangan.

Tadqiqotda benazir huquqiy qadriyat hisoblangan Konstitutsiyamiz buyuk mutafakkirlarimiz, alloma ajdodlarimiz merosidagi boy huquqiy g‘oyalarga, bilimlarga asoslanganligi qayd etilgan.

Dissertant fikrga ko‘ra, Konstitutsiyamiz – ajdodlarimizning hozirgi zamon sivilizatsiyasiga xizmat qilib kelayotgan bebaho merosiga, jumladan, jadid mutafakkirlarning ham boy ilmiy qadriyatiga, teran huquqiy tafakkurlariga ham asoslanadi.

Dissertant ishda Buxoro Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari mazmun-mohiyatining nihoyatda hamohang va mushtarak ekanligini qiyosiy tahlil etgan.

Dissertatsiyada jadid mutafakkirlarining qabul qilinadigan Konstitutsiyalarda inson uchun ahamiyatli bo‘lgan vijdon erkinligi, so‘z erkinligi, matbuot erkinligi, shuningdek, fuqarolarning o‘z ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqlari mustahkamlanibgina qolmasdan, balki ular bajarilishi mutlaqo ta‘minlanishi borasidagi qarashlari umumlashtirilgan.

Tadqiqotda, shuningdek, jadid rahnamolari qonunning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rniga katta ahamiyat berganliklari, ularning qonunlar orqali jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlar tartibga solinishi to‘g‘risidagi boy g‘oyalari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida jadid mutafakkirlarimizning jamiyat hayotida Konstitutsiya va qonunning ahamiyati hamda vazifasi haqidagi boy g‘oyalari, teran mushohadalari – hozirgi davrda qonunning ustunligini va barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini, inson va jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va mamlakat aholisining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

Dissertant jadid mutafakkirlarining o‘z davrida qozilar, ularning faoliyati, jamiyatda tutgan o‘rni, huquq va majburiyatlari, qozilik sudlari va vazifalari, huquq sohasidagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari to‘g‘risida qoldirgan boy g‘oyalarni aniq dalillar va ishonchli manbalar asosida qiyosiy tahlil etgan.

Tadqiqot ishida sud hokimiyatining vazifasi – inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mamlakat konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini ta‘minlash, qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni ijro qilish va qo‘llashda qonuniylik hamda adolat uchun kurashishdan iborat, degan to‘xtamga kelingan.

Dissertant taraqqiyparvar ziyolilar – jadidlarning o‘z davrida sud-huquq masalalari haqida, jumladan, qozilar, ularning faoliyati, huquq va majburiyatlari, qozilik sudlari va vazifalari to‘g‘risida boy g‘oyalar qoldirganliklari, dolzarb muammolarni ilgari surganliklarini ta‘kidlab, ularning qozilar hamda qozilik sudlari faoliyatida tub o‘zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish zarurligi, shuningdek, ta‘lim va madaniy-ma‘rifiy muassasalarning moddiy ta‘minoti haqidagi bilimlarini, qarashlarini umumlashtirgan.

Dissertant fikriga ko‘ra jadid mutafakkirlarining sud-huquq masalalari haqidagi boy va serqirra g‘oyalari, o‘z loyiha va dasturlarida ishlab



chiqqan, ahamiyatiga ko'ra g'oyatda muhim bo'lgan qoidalar – sud-huquq sohasidagi islohotlar davom ettirilayotgan hozirgi davrda sudning jamiyatimizda tutgan o'rni va nufuzini yanada ko'tarishda, uni hokimiyatning chinakam mustaqil tarmog'iga aylantirishda, sud organlarini inson va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi idoraga aylantirishda, jamiyatda adolatli sud tizimini qaror toptirishda, shubhasiz, dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda jadid mutafakkirlarining nikoh va uni tuzish tartibi hamda shartlari, nikoh tuzishning ixtiyorligi, mahr masalasi, oila vazifasi va uni tashkil qilish to'g'risidagi g'oyalari va mazkur masalalarning huquqiy jihatlari o'rganilgan.

Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining normalari Konstitutsiya va qonunlarimizning bir qator moddalari jadid mutafakkirlarimiz g'oyalari bilan nihoyatda mushtarak ekanligi qiyosiy tahlil etilgan.

Tadqiqotda oila turmush va vijdon qonunlari asosiga qurilishini, u fuqarolik jamiyatining tayanch tuzilmalaridan biri bo'lib, bu muqaddas maskanda nafaqat inson dunyoga kelishi, balki uning ma'nan va axloqan tarbiyalanishi, shakllanishi hamda kamol topishi, shaxs o'zligini namoyon etishda oilaning benihoya ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, oilaviy munosabatlarda er va xotinning haq-huquq hamda majburiyatlari qayd etilgan. Alloma ajdodlarimizning nikoh va oila masalalari to'g'risida qoldirgan boy ilmiy merosining bugungi kunda oilalarda tinch-totuvlik va sog'lom turmush tarzini ta'minlashdagi ahamiyati o'rganilgan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Jadidlar siyosiy partiyalarining dasturlarida davlat-huquqiy masalalar va ularning yechimlari”** deb nomlanib, unda “Turk Adami Markaziyati partiyasi“ dasturida huquqiy g'oyalar”, “Yosh buxoroliklar partiyasi” dasturida huquqiy davlat qurish g'oyalari, “Jadid taraqqiyparvarlar partiyasi”ning dasturida davlat qurilishi muammolari, “Yosh xivaliklar partiyasi”ning siyosiy-ijtimoiy va madaniy islohotchilik g'oyalari o'rganilgan.

Tadqiqotda jadidlarning dasturiy hujjatlarida siyosiy partiyalar davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishda o'z ta'sirlarini kuchaytirishlari uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor qozonishlari, keng siyosiy faoliyat olib borishlari, mulkiy mustaqillikka erishishlari, katta siyosiy tajriba orttirishlari, jamiyatda o'z mavqelariga va o'zlarining doimiy saylovchilariga ega bo'lishlari to'g'risidagi ilg'or g'oyalari qayd etilgan.

Dissertatsiya ishida, shuningdek, Turkiston federalistlari partiyasining Turkistondagi rus siyosiy partiyalaridan farqli o'laroq mustaqil holda tizimlashgan siyosiy Dasturni ilgari surganligi, mahalliy xalq orasida muxtoriyatchilik g'oyalarini chuqur singdirganligi, ular siyosiy tafakkurini kengaytirganligi, mahalliy xalq milliy-hududiy muxtoriyat, suverenitet, milliy birlik zaruriyati xususida teran tushunchalarga ega bo'lganliklari musulmonlar orasida muxtoriyat g'oyalarini keng targ'ib etishda milliy ziyolilar va siyosiy partiyalarning nihoyatda muhim rol o'ynaganliklari tahlil qilingan.

Dissertant “Yosh buxoroliklar partiyasi” dasturida huquqiy davlat qurish to'g'risidagi ilg'or g'oyalar ko'tarib chiqilgani, jumladan, Buxoro jadidlari o'zlarining siyosiy tashabbuslari bilan milliy mustaqillik uchun kurashga qodir bo'lgan – “Yosh buxoroliklar partiyasi”ni tuzishga muvaffaq bo'lganliklari,

mazkur partiyaning Dasturida Buxoroda huquq asosida quriladigan davlatchilikni joriy etish, xalqning farovonligi, siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish negizida Buxoroni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan mustahkamlash to'g'risidagi g'oyalari umumlashtirgan.

Tadqiqotda "Jadid taraqqiyparvarlar partiyasi"ning dasturida mazkur partiya-jadidchilik g'oyalari bilan yo'g'rilgan o'z davridagi ilg'or siyosiy partiyalardan biri ekanligi, jadid taraqqiyparvarlarning asosiy maqsadi – Turkistonning davlat mustaqilligiga erishish, milliy hukumat tuzish, o'z milliy madaniyatiga ega bo'lib, mustaqil millat sifatida hayot kechirishdan iborat bo'lmog'i, ushbu oliy maqsad jamoat arbobi Ahmad Zakiy Validiy To'g'on tomonidan ishlab chiqilgan partiya Dasturida o'z ifodasini topganligi, shuningdek, jadid taraqqiyparvarlar partiyasining Dasturida millat ozodligi va erkinligi, Turkistonning davlat mustaqilligi to'g'risidagi ilg'or g'oyalarning dadil ko'tarib chiqilganligi yoritib berilgan. Turkiston mustaqilligi, milliy mustaqil demokratik davlat barpo etish masalalari jadid taraqqiyparvarlarning nafaqat g'oyalari va Dasturlarida, shuningdek, ularning amaliy faoliyatlariga aylanganligi qiyosiy tahlil etilgan.

Dissertatsiya ishida "Yosh xivaliklar partiyasi"ning siyosiy-ijtimoiy va madaniy islohotchilik g'oyalari" ularning mahalliy aholini birlashtiruvchi siyosiy tashkilot tuzganligi, turmush talablari va mavjud mustabid tuzum asoratidan vujudga kelgan sharoit ko'zda tutilib, siyosiy-ijtimoiy va madaniy islohot rejasi ishlab chiqqanligi, unda asosiy maqsad va vazifalar mustahkamlab qo'yilganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Davlat va huquq g'oyalari**ning jamoat arboblari tomonidan rivojlantirilishining ba'zi masalalari" deb nomlanib, unda milliy mustaqil demokratik davlat g'oyasi-jadid huquqiy qarashlarining bosh mezoni ekanligi, davlat mustaqilligiga erishish va uni ta'minlashda harbiy qurilish va mudofaa tamoyillariga jadidlarning zukko e'tibori, milliy mustaqil demokratik davlat qurish va tadbirni to'g'ri amalga oshirishda xalqlar o'rtasida milliy birlik va hamkorlik zarurligi to'g'risidagi jadidlar g'oyalari, siyosiy raqobat davlat-huquqiy muammolarni ham qiluvchi omillardan biri ekanligi tadqiq etilgan.

Tadqiqotda jadidlarning mamlakatda milliy va mustamlakachilik zulmi kuchaygan, xalqning ikki tomonlama jabr-sitam ostida ezilib kelayotgan, umuman, zo'ravonlik, tengsizlik hech qanday chegara bilmagan bir sharoitda mavjud istibdod tuzumiga, uning siyosiy-huquqiy qonun-qoidalariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqqanliklari, ularning jamiyatda inson qadr-qimmatini, haq-huquqini himoya qilish, xalqni ma'rifatli – savodxon qilish, mustamlakachilarga qarshi kurash, mustabid tuzumga barham berish, Vatan va Millat ozodligi, Turkistonda milliy mustaqil demokratik davlat qurish uchun alohida fidoyilik ko'rsatganliklari, taraqqiyparvar ziyolilarimiz g'oyat mas'uliyatli va murakkab bir davrda shaxsiy jasoratlari, aql-zakovatlari tufayli xalqimizga milliy mustaqillik g'oyalari singdirib, uni o'z erki va ozodlik uchun kurashga da'vat etganliklari qayd etilgan.

Dissertatsiyada jadidlar millat va mamlakat taraqqiyotini – ilm-u ma'rifatni rivojlantirish, ulkan siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mustaqillikni qo'lga kiritish va milliy mustaqil demokratik davlat barpo etish bilan bog'langan edi, degan to'xtamga kelingan. Ular asarlarida, dasturlarida millatning, xalqning

siyosiy mustaqilligi shart qilib qo'yilganligi aniqlangan. Jumladan, jadidlar "Erk" partiyasining Dasturida ham mamlakat va millat mustaqilligi to'g'risidagi qoidalar mustahkam o'z ifodasini topgan. Dasturning 3-moddasiga asosan "Turkiston mustamlakachilar qo'ldan qutqarilib, mustaqil idora etilishiga erishilajak". Mustabid tuzumga va mustamlakachilikka batamom barham berish, shuningdek, Turkiston mustaqilligi jadidlar uchun nafaqat g'oya, balki amaliy faoliyatlarida bo'lgan. Jadidchilik harakatining eng e'tiborli namoyandalaridan Munavvarqori Abdurashidxonov haqqoniy ta'kidlaganidek, "Podsho hukumatini yiqitish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz shundan iborat bo'lishi yashirin emas".

Tadqiqot ishida o'zbek taraqqiyparvar ziyolilari – jadidlar davlat mustaqilligiga qudratli harbiy qurilish va kuchli armiyaga ega bo'lmasdan turib erishish mumkin emasligini teran anglab, mazkur masalalarga alohida diqqat-e'tiborni qaratganliklari, ular har bir mamlakat o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritish uchun zamonaviy harbiy texnika bilan qurollangan, har tomonlama puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan armiyasi bo'lishi zarurligi haqidagi ilg'or g'oyalarni o'z asarlarida, dasturlarida ilgari surganliklari va bu borada nafaqat nazariy jihatdan, shuningdek, amaliy tomondan ham katta kuch-g'ayrat sarflanganliklari qiyosiy tahlil etilgan.

Dissertatsiyada Abdurauf Fitrat tomonidan ishlab chiqilgan yosh buxoroliklar partiyasining Dasturida ham harbiy qurilish va mudofaa masalalariga juda katta e'tibor berilgan: Milliy Armiya tuzishda harbiy xizmatning hamma uchun majburiy bo'lgan yangicha Yevropa usullarini kiritish, jinoyatchilar hisobidan harbiy xizmatchilar safini to'ldirish kabi Amir armiyasining eskicha usullaridan voz kechish; armiya safiga xizmatga qabul qilinayotgan askarlar, albatta, tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi, kasallar va nogironlarning umumiy majburiy harbiy xizmatdan ozod qilinishlari; askarlar uchun harbiy xizmat muddati ikki yil qilib belgilanishi; davlatning 22 yoshga to'lgan har bir fuqarosi harbiy xizmatni o'tashga majbur ekanliklari; armiyada askarlarga harbiy bilimlarni o'rgatish, ularni davlat tomonidan oziq-ovqat, kiyim-kechak va ma'lum miqdorda oylik bilan ta'minlanishi; harbiy xizmatchilar uchun katta kazarmalar tashkil etish, Buxoroda qo'mondonlar tayyorlash uchun harbiy maktablar ochilishi; armiyada harbiy boshliqlarning askarlar bilan qo'pol muomalasi, ularning harbiy xizmatchilarga nisbatan jabr-zulm o'tkazishlari kabi mavjud odatlarning batamom yo'qotilishi; yangicha usulda tuziladigan Milliy Armiya safida xizmat qilish uchun mahalliy zobit va instruktorlar yetishmasligi sababli, Rossiya qo'shinida xizmat qilgan musulmon zobit va instruktorlarni Buxoroning yangi qo'shiniga keltirish zarurligi; mamlakatda butun harbiy ishlarning bir markazga ya'ni Harbiy ishlar Nazoratiga to'planishi lozimligi o'rganilgan.

Dissertant jadidlar "Erk" partiyasi Dasturida ularning milliy armiya tuzish to'g'risidagi ilg'or g'oyalari va uni amalga oshirish mutlaqo shart qilib qo'yilgan, degan to'xtamga kelgan. Jumladan, Dasturning 5-moddasi mazmuniga ko'ra, "Davlatni idora qilishni tashkil etish uchun milliy qo'shinlar tuzilajak". Jadid taraqqiyparvarlari partiyasining Dasturida ham "O'z milliy madaniyatiga ega bo'lib, mustaqil millat sifatida yashash – hayotning asosi bo'lmog'i kerak. Bu esa barcha millatlarning orzusidir. Maqsadimiz Turkistonni mustaqil qilib, milliy

hukumat tuzishdan iborat. Turkiston milliy hukumati Turkiston milliy askariga tayanajak: harbiy xizmat majburiy” degan qoida ustuvor edi.

Dissertatsiyada jadid mutafakkirlarining harbiy qurilish, davlat mudofaasi, askarlar, ularning faoliyati, huquq va majburiyatlari, Milliy Armiya tuzish to‘g‘risidagi ilg‘or g‘oyalari – hozirgi davrda mamlakatimizni har qanday sharoitda harbiy tajovuzlardan himoya qilishda, uning davlat mustaqilligini mustahkamlashda, Qurolli Kuchlarimizning respublikamiz hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayotini ta‘minlashda juda katta ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan.

Tadqiqot ishida mustaqillikka erishish va milliy-demokratik davlat barpo etish, uning barqarorligini ta‘minlash uchun xalqni, millatni birlashtirish, tarbiyalash va tayyorlash zaruriyatini taraqqiyparvar ziyolilar teran anglab etganliklari, ularning siyosiy faoliyatlari aynan mana shu maqsadlarga yo‘naltirilganligi, musulmonlarning milliy birlik va hamkorlik, ittihad va ittifoq, muxtoriyat va milliy-demokratik davlat haqidagi g‘oyalarning mohiyatini chuqurroq tushuna boshlaganliklari tahlil qilingan.

Dissertatsiyada milliy birlik va hamkorlik – davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshiruvchi muhim omil ekanligi, ittihad va ittifoq, faollik va fidoyilik turkistonliklarning asriy xususiyatlaridan hisoblanib, taraqqiyparvar mutafakkirlar ularni millatning, xalqning ong-u tafakkuriga chuqur singdirganliklari, mahalliy tub joy aholi turli qatlamlarini o‘z ortlaridan ergashtira olganliklari o‘rganilgan.

Dissertant o‘z davrida mamlakatda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchilari hamda targ‘ibotchilari bo‘lgan jadidlarning – muhim siyosiy voqea hisoblangan saylovlar, ularga tayyorgarlik ko‘rish, qonuniy o‘tkazishini ta‘minlash, umuman, siyosiy raqobat va mazkur jarayon bilan bog‘liq muammolar xususidagi ibratli g‘oyalarni, qarashlarini umumlashtirgan. Jumladan, Abdurauf Fitratning “Hurriyat” gazetasida “Saylov yaqinlashdi” nomli maqolasi e‘lon qilingan edi. Maqolada Samarqandda shahar dumasining ochilishi, unda vakillarni saylash zarurligi, eski hukumat davrida mamlakatning butun boshqaruv ishlari siyosiy hukumat amaldorlari ixtiyorlarida bo‘lib, ularni xalqning xohish-irodasi, qonuniy talab-istaklari mutlaqo qiziqirmaganligi, istagan yerni obod qilib, istagan joylarni vayronaga aylantirganliklari, shaharni musulmon qismi bilan ruslar istiqomat qiladigan qismi o‘rtasida katta ayirmachilik saqlanib qolganligi to‘g‘risida jiddiy munosabat bildirgan edi. Mazkur saylovga Fitratning uqtirishicha, yosh-qari, mulkdor-nochor, er-xotin. umuman, yigirma yoshdan yuqori bo‘lgan barcha insonlar o‘z siyosiy huquqlaridan foydalanib ovoz bersinlar hamda o‘tkaziladigan bu tadbirda faol ishtirok etsinlar. U shahar dumasiga ruslardan, musulmonlardan, yahudiylardan (har bir millatdan) soniga qarab vakillar olinishi, qaysi millatning vakillari ko‘proq bo‘lsa, shahar dumasiga ushbu millat manfaatini ko‘zlab ish yuritishini tushuntirar ekan, shaharda musulmonlar sonining ko‘pligini alohida ta‘kidlaydi.

Dissertatsiyada jadid mutafakkirlarimizning saylovlar va siyosiy raqobat to‘g‘risida ilgari surgan ilg‘or g‘oyalari, qimmatli fikrlari bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib, yuksak ma‘naviyatli komil insonlarni tarbiyalashda, davlat-huquqiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

## XULOSA

### **I. Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari muammolarini tadqiq etish natijalari quyidagi konseptual xulosalarga asos bo'ldi.**

1. Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari hamda ularning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi voqea-hodisalarni teran idrok etishlari – mamlakat va millat taqdiriga najot izlash maslagi bilan o'z davridagi ilg'or g'oya va istiqbolli tafakkurni to'la anglab yetishlari, o'zlashtirishlari natijasida, shuningdek, Sharq mamlakatlari ma'naviy merosini mukammal o'rganib, G'arb mamlakatlari ma'naviy merosi bilan taqqoslash-chog'ishtirish asosida shakllandi. Bu davrda podsho Rossiyasining Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligida mustamlakachilik tuzumini mustahkamlaganligi, siyosiy va iqtisodiy hukmronligining yanada kuchayganligi, mahalliy amaldorlar hamda mustamlakachi ma'murlarning xalqqa nisbatan jabr-zulmining nihoyatda zo'rayganligi, mamlakatda milliy va ijtimoiy zulmning yuqori nuqtaga yetganligi, uning vahshiyona amalga oshirilishiga qarshi milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashning vujudga kelishi va rivojlana borishi bilan xarakterlanadi.

2. Jadidchilik – ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy harakat bo'lib, umuminsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan, tarixiy rivojlanishning yetilgan ehtiyojlari hamda mamlakat mahalliy aholisining manfaatlari, g'oyalari va qarashlarini ifoda qilardi.

Jadidlarning davlat va huquq haqidagi qarashlari XX asr boshlarida naqadar ahamiyatli bo'lsa, mustaqil O'zbekistonning buguni va kelajagi uchun ham shunchalik muhimdir.

Jadidchilik harakatining rahnamo tashabbuskorlari mustamlaka Turkistondagi holat, xalqning podsho ma'murlari hamda mahalliy amaldorlarning ikki tomonlama zulmi ostida qolganligi, ularning erki va haq-huquqlarining oyoq osti qilinayotganligi, ayni paytda ijtimoiy hayotdagi mavjud madaniy va ma'naviy qoloqlikni chuqur anglab, davlat tuzumi va boshqaruvini isloh etish, xalq ommasini ma'rifatga yuzlashtirish, milliy va mustamlakachilik zulmidan ozod qilish, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish uchun nafaqat ilmiy-nazariy jihatdan, shuningdek, amaliy tomondan ham katta kuch-g'ayrat sarfladilar.

3. Jadidlar o'sha davrdagi mavjud davlat tuzumini sindirish, hech bo'lmaganda isloh qilish va kelgusida milliy mustaqil demokratik davlat barpo etish, shuningdek, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida huquq ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladigan – huquqiy davlat shaklini vujudga keltirish, jamiyatni yangilash hamda uni amalga oshirish yo'llari to'g'risidagi ilg'or g'oyalari xalqqa, ayniqsa uning arboblari tomonidan yetkazildi, ular amalda alohida fidoyilik ko'rsatdilar.

Demak, jadidlar xalq qarashlarini o'zida aks ettirgan, ular manfaatlarini himoya qilgan milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar orqali podsho Rossiyasining mustamlaka ma'muriyatini tugatishga intilishda xalqni milliy ozodlikka olib chiqishda xaloskorlik, birdamlik va hamkorlik namunalari ko'rsatdilar.

4. Jadidlar XIX asr oxirlarida va XX asrning birinchi choragida dasturiy hujjatlar, amaliy siyosiy harakatlar yo'nalishi va rejasini ishlab chiqib boshladilar.

Ularning dasturiy hujjatlarida asosiy e'tibor davlat huquqiy tuzilishini barpo etish, qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o'lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruvi va sudi mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratildi. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan hamda konstitutsion jihatdan kafolatlangan demokratik jamiyatni shakllantirish eng ustuvor maqsad qilib belgilanadi.

Chunonchi, ular tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlar – maromnoma, nizomnoma va bir qator siyosiy, ma'rifiy loyihalar kabi dasturiy hujjatlarda ilgari surilgan muammolar, ilg'or g'oyalar hozirgi davrda ham dolzarb ahamiyat kasb etishi bilan nihoyatda qimmatlidir.

5. Davlatni mustaqil mamlakat sifatida e'tirof etish uchun asosiy tayanch belgilardan biri – uning milliy armiyasidir. Taraqqiyparvar ziyolilar – jadidlar davlat mustaqilligiga qudratli harbiy tuzilma va kuchli armiyaga ega bo'lmasdan erishish mumkin emasligini ilmiy-huquqiy asoslab berdilar. Vatan tuyg'usini va vatanparvarlik g'oyalarini ilgari surdilar.

Jadidlar mustaqillikka erishish, milliy-demokratik davlat barpo etish, uning barqarorligini ta'minlash uchun xalqlar o'rtasida o'zaro milliy birlik va hamkorlik zarurligini nihoyatda chuqur tushundirdilar. Bu, ayniqsa, 1917-yilgi inqilob va to'ntarish arafasida hamda yosh sovet davrida yaqqol ko'zga tashlandi. Ular faoliyatining asosiy vazifasiga aylandi.

Taraqqiyparvar ziyolilar-jadidlar mamlakatda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchilari hamda targ'ibotchilari edilar. Ular saylovlar va siyosiy raqobat hamda mazkur jarayon bilan bog'liq muammolar xususida o'z vaqtidayoq jiddiy munosabat bildirib, o'z qarashlarini xalqqa yetkazishga harakat qilishdi.

6. Jadid taraqqiyparvarlar demokratik ruhdagi Konstitutsiya va qonunlar ishlab chiqish hamda qabul qilishda nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tomondan katta kuch-g'ayrat sarfladilar. Konstitutsiyalarda inson va fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlab qo'yilishi, amalda bajarilishini ta'minlash nihoyatda zarurligi to'g'risidagi boy g'oyalari hozirgi davrda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Jadid taraqqiyparvarlar mamlakatni tanazzuldan, fuqaroni og'ir ahvoldan xalos qilishni ilm-fan asoslarini egallash va siyosiy bilimlarni rivojlantirishda deb hisoblaydilar. Ilm-ma'rifatni keng yoyib, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqarish muhim vazifalardan biri ekanligini ta'kidlashdi. Inson huquq va erkinliklarining jonkuyar himoyachilari – jadidlar mamlakatda ilm-fanni rivojlantirmasdan turib, taraqqiyotga, ozodlikka erishib bo'lmasligini, har bir fuqaroning diniy va dunyoviy ishlarni bajarishlari hamda ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishi uchun bilim olish huquqiga ega bo'lishlari lozimligini uqtiradilar. Ular ilm-u ma'rifatsiz, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan qoloq xalq qashshoqlikka, jaholatga, milliy hamda ijtimoiy zulmga mahkum ekanligini ko'rsatib beradilar.

8. Jadidlarning diqqat-e'tiboridagi asosiy masalalardan biri – inson huquq va erkinliklari muqaddas ekanligi, uning har narsadan ustun turishi, bu huquq va erkinliklarni kamsitish hamda poymol qilishning jinoyat hisoblanishi, inson shaxsini pastga urish, qadr-qimmatini tahqirlash, shafqatsiz zulm qilishning o'zboshimchalik va qonunsizlik ekanligidir. Ular barcha insonlarning jamiyatda

tutgan mavqeyidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishlari, jumladan, xotin-qizlarning erkaklar bilan hayotda ham, huquqda ham tengligini himoya qilib chiqadilar. Taraqqiyparvarlar inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat hisoblashi, ularni hurmat qilish jamiyatning barcha a'zolari uchun majburiy ekanligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari suradilar. Jadidlarning bu borada ta'limotlari hozirgi davrda davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashda, xalqimizning huquqiy davlat qurishdek ulkan maqsadni amalga oshirishda qimmatli ahamiyatga egadir. Mutafakkirlarning inson huquqlari va erkinliklari, shaxsning hayoti, sog'lig'i, g'ururi, qadr-qimmati kabi umuminsoniy qadriyatlar borasida qoldirgan bilimlari, g'oyalari bugungi kunda fuqarolik jamiyatini barpo etishda, qonunchilikni ta'minlashda boy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

9. Jadid mutafakkirlar tomonidan sud-huquq masalalari, umuman, davlat hokimiyatining muhim qismi bo'lgan sud hokimiyati to'g'risida dolzarb muammolar ilgari surilgan. Ular qozilar mahkamasida, umuman, qozi sudlarida hukm surgan qonunsizliklar va ayrim qozilarning shariatga xilof ishlari mohiyatini xalqqa tushuntirdilar, ularning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari, barcha kirdikorlarini ayovsiz fosh etdilar.

Jadidlar har bir inson o'z huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining himoyasi uchun amaldorlarning har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan sud orqali himoya qilinish huquqiga ega bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydilar. Ular sud ishlarini yuritishda qonuniylik va adolat talablariga qat'iy rioya etilishi to'g'risidagi g'oyalarni tarannum etishdi.

Taraqqiyparvarlarning ko'plab maqola va asarlarida ayrim qozilarning xizmat burchlariga, fuqaroning huquq va manfaatlariga, shariat qoidalariga zid ravishda oddiy xalqqa nisbatan adolatsiz, shafqatsiz og'ir jazo tayinlashlari keskin tanqid qilinadi, fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati, hayoti, sog'lig'i, huquq va erkinligi, mol-mulkingning himoyasini qonuniy ta'minlash, qozilarning jinoyat uchun jazo choralari tayinlash bo'yicha faoliyatlarini qayta ko'rib chiqish va tubdan isloh qilishlarini qat'iy talab qilish kabi dolzarb huquqiy muammolar ilgari surilgan va ularni yechish yo'llari ochib berilgan.

10. Jadid ziyolilarimiz mamlakat vaqflari, vaqflarning ahamiyati, ularni saqlab qolish lozimligi, umuman, vaqf ishlari, ulardan keladigan daromadlar, vaqflardan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirish kerakligi, vaqf mulklarini tasarruf etishda qonuniylik tamoyillariga qat'iy rioya qilish zarurligi to'g'risidagi, shuningdek, nikoh va oila masalalari haqidagi fikrlari boy va serqirradir. Ular nikoh va uni tuzish tartibi hamda shartlari, nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, oila vazifasi va uni tashkil qilish, oila va oilaviy munosabatlarda erkak va ayolning teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari haqidagi qimmatli g'oyalarni dadil ilgari suradilar.

11. O'zbek xalqining asosiy orzu-intilishlaridan biri – mustaqil, insonparvar, adolatli davlatni barpo etish edi. Mustaqillik va milliy davlatchilik uchun kurashgan va halok bo'lgan fidoyi jadid ziyolilarimizning betakror ilmiy merosini, davlat va huquq haqidagi qarashlarini, g'oyalarni chuqur o'rganish, tadqiq va targ'ib qilish, shuningdek, ularning bu borada boy ta'limotlarini hozirgi davrda o'zbek milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganish, mustaqilligimizni

mustahkamlash, qudratli huquqiy demokratik davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda tatbiq etish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

12. Milliy huquqiy meros – bu millatimizning, xalqimizning, benazir boyligi. Bu boylik eng katta qadriyat hisoblangan buyuk mutafakkirlar, jumladan, jadid ziyolilarimiz asarlarida o‘zining chuqur ifodasini topgan.

Taraqqiyparvar ziyolilarimiz – jadidlarning boy va serqirra huquqiy g‘oyalari bugun ham jamiyat a‘zolarining huquqiy bilimni oshirishda, ularning huquqiy tafakkuri va ma‘naviyatini yuksaltirishda qimmatli dasturdir. Madomiki shunday ekan, ulardan huquqiy ta‘lim va tarbiyani takomillashtirishda hamda talaba-yoshlarni ma‘naviy-huquqiy jihatdan har tomonlama yetuk, mukammal etib shakllantirishda keng foydalanish ahamiyatlidir.

13. Jadidlarimiz tomonidan ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar, davlat va huquq haqidagi qarashlari, ularning ibratli hayoti, siyosiy faoliyati va beqiyos fuqarolik jasoratlari faqat o‘zlari yashab ijod etgan davr uchun ahamiyat kasb etibgina qolmay, hozirgi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Biz taraqqiyparvar ziyolilarimizning boy g‘oyalari, ta‘limotlaridan hozirgi milliy istiqlol g‘oyasini rivojlantirishda nazariy manba sifatida foydalansak, ayni muddao bo‘ladi. Zero, xalqning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tafakkurini boyitishga beqiyos hissa qo‘shgan fidoyi jadidlarimiz asarlari, qimmatli ilmiy merosi hozirgi mustaqillik davrining huquqiy-mafkuraviy asosini tashkil etadi.

14. Jadidlarning xalqni savodxon qilish, fuqaro orasida ma‘rifatni keng yoyish, ilm olish huquqi, jamiyat barcha a‘zolari uchun bilim olishga teng huquqlilikni ta‘minlash to‘g‘risidagi ilg‘or g‘oyalari – ko‘p yillar o‘tgan, tuzumlar almashgan, o‘qitishning yangidan-yangi usullari ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, mamlakatimizda tub ma‘rifiy islohotlar olib borilayotgan hozirgi davrda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar o‘zlari yaratgan asarlarda alloma ajdodlarimiz ilg‘or g‘oyalarini hamda jahon ilm-fani taraqqiyoti mahsullarini asos qilib olganlar. Bu an‘ana hozirgi davrda ham davom etmoqda.

Jadidlarning millatimiz va xalqimiz oldida qilgan xizmatlari kattaligini anglagan holda, ularning faoliyatlari va asarlarini o‘rganish, ularning mazmun-mohiyatini chuqur tushunib yetish, amaliyotda – huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida qo‘llash bugungi kun jamiyat a‘zolari uchun ham farz, ham qarzdir.

## **II. Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlaridan foydalanish samarasini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar:**

1. Mamlakatimiz yuridik oliy ta‘lim muassasalarida, shuningdek, oliy ta‘lim tizimidagi ijtimoiy-gumanitar o‘quv muassasalarida “Davlat va huquq nazariyasi”, “Huquqiy ta‘limotlar tarixi”, “Konstitutsiyaviy huquq” kabi fanlarni o‘qitishda Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlariga bag‘ishlangan maxsus soatlarni joriy etish va ularning dasturlarini ishlab chiqish.

2. Respublikamiz yuridik oliy ta‘lim muassasalari tizimida o‘qitiladigan fanlar yo‘nalishiga “Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari” kursini kiritish orqali yangi avlod huquqiy adabiyotlarini ishlab chiqish. Elektron darslik va huquqiy lug‘atlar yaratish.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on



qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti, yuridik oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda “Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari” mavzusida tizimli ravishda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish.

4. Jadid mutafakkirlari va ular zamondoshlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari aks etgan asarlari yanada ko‘proq chop ettirilsa, xalqimizga keng tarzda yetkazilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Hozirgi davrda ham ularning bu sohadagi ilmiy qarashlari huquqshunoslik fanini o‘rganishda dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi tayindir.

5. Respublika oylik nashrlarda (ilmiy-ma’rifiy jurnallar va axborotnomalarda) jadid mutafakkirlarining davlat, harbiy qurilish, mudofaa, huquq, qonun, qonuniylik, adolat, sud, jinoyat va jazo haqidagi g‘oyalari beriladigan sahifa ochish maqsadga muvofiqdir.

6. Mahalliy va xorijiy qo‘lyozma fondlarida, kutubxonalar va hujjatgohlarda saqlab kelinayotgan jadidchilik harakati vakillarining tarjima qilinmagan asarlari, maqolalari, birlamchi manbalarni tarjima qilib, ilmiy jamoatchilikka va keng ommaga yetkazish borasida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi bilan hamkorlikda ishlar olib borish.

7. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasi tinglovchi va kursantlari uchun tashkil etiladigan o‘quv kurslarida jadidlarning davlat va huquq haqidagi qarashlariga, harbiy qurilish va milliy mudofaa masalalariga bag‘ishlangan modullar ishlab chiqish. Jadid taraqqiyparvarlarga bag‘ishlangan “Istiqlol fidoyilari”, “Jasoratli millat xodimlari”, “Shahidlar shohi”, “Vatan fidoyilari” mavzusida teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar va davra suhbatlari tashkil qilish, mutaxassis olimlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish ayni muddaodir.

8. Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat va tuman bo‘limlarida, mahallalarda targ‘ibot ishlarini tashkil etish jarayonlarida jadidlarning davlat va huquq haqidagi qarashlaridan foydalanib, o‘quv qo‘llanmalar va elektron taqdimotlar tayyorlash. “Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari”, “Millat qahramonlari”, “Vatan fidoyilari”, “Jadidlar harbiy qurilish to‘g‘risida” nomli qo‘llanmalar tayyorlash va nashr ettirish.

9. Xalqning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tafakkurini boyitishga beqiyos hissa qo‘shgan, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy qatl ettirilgan Qarshi shahriga Behbudiyning tabarruk nomini qaytarish va berish. Buxoro shahrida – birinchi o‘zbek professori, qomusiy alloma Abdurauf Fitratni o‘zi yashagan hovlisida uy-muzeyini tashkil qilish.

10. Toshkent shahrida tavallud topib, voyaga yetgan jadid rahnamolaridan Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Tavallolarning poytaxtda uy-muzeylarini tashkil qilish. Toshkent metropoliteni ayrim bekatlarining nomini – Munavvar qori, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi fidoyi millat xodimlarining tabarruk nomlari bilan atash.

11. 1922-yil oxirlarida Fayzulla Xo‘jayev hukumati tomonidan 70 ga yaqin iste’dodli buxorolik va turkistonlik talabalar Germaniyaga o‘qishga yuborilgan edi. Ular 30-yillarning boshlarida o‘qishlarini bitirib, xorijda olgan ilg‘or bilim va tajribalarini ishga solib, O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida fidokorona ishladilar. Qatag‘on yillarida ular “nemis-fashist josusi”, “vatan xoini” degan asossiz ayb va tuhmatlar bilan ayblandilar. Germaniyada o‘qigan talabalarning deyarli hammasi 1938-yilning 4–9-oktyabr kunlarida vahshiylarcha otib o‘ldirildi. Shahid ketgan bu talabalarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahridagi “Talabalar shaharchasi”da muzey tashkil etilsa, poytaxtdagi, viloyatlar va shaharlardagi barcha oliy ta’lim muassasalari talabalarining ushbu muzeyga kirishlari ta’minlansa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

12. Markaziy Osiyo jadidlari bilan qrim-tatar, boshqird, ozarbayjon va boshqa mintaqalar jadidlarini davlat va huquq haqidagi qarashlarini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlar olib borish va xalqaro konferensiyalar o‘tkazish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ  
БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**  
**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**ЭРГАШЕВА МАВЛЮДА ЗУЛКАНДАР КИЗИ**

**ВЗГЛЯДЫ ДЖАДИДОВ ТУРКЕСТАНА, БУХАРЫ И ХИВЫ  
О ГОСУДАРСТВЕ И ПРАВЕ**

**12.00.01 – Теория и история права и государства. История правовых учений**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора юридических наук (DSc)

**Ташкент – 2024**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № B2023.3.DSc/Yu251

Диссертация выполнена на базе Университета общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском) размещен на веб-сайте Университета общественной безопасности Республики Узбекистан ([www.mgixu.uz](http://www.mgixu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)).

**Научный консультант:**

**Тошкуллов Джурабой Уринбаевич**  
доктор юридических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Саидов Акмал Холматович**  
доктор юридических наук, академик

**Бабаев Халимбай**  
доктор юридических наук, профессор  
**Ахмедова Мукаддасхон Турсуновна**  
доктор юридических наук, доцент

**Ведущая организация:**


**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «14» 10 2024 года в 15<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан (Адрес: 100211, Ташкентская обл, Зангиатинский район, пос. Чорсу. Тел.: (+99871) 230-32-71; факс: (+99871) 230-32-50, [jxu@umail.uz](mailto:jxu@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (Адрес: 100109, Ташкентская обл, Зангиатинский район, пос. Чорсу. Тел.: (+99871) 230-32-71; факс: (+99871) 230-32-50

Автореферат диссертации разослан «30» 09 2024 года.

(Протокол реестра № 1 от «30» 09 2024 года).



**М.Х. Рустамбаев**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ю.н., профессор

**Ж.Д. Ахмедов**  
Научный секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.ю.н., (PhD)

**М.Б. Усмонов**  
Председатель Научного семинара  
при Научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
д.ю.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В условиях постепенного углубления процесс бализации возрастает потребность в широкомасштабном изучении наследия джадидов, выступавших сторонниками прогрессивных и просветительских идей. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций отметил: «Мы решительно продолжим политику строительства Нового Узбекистана как правового, светского, демократического и социального государства. На основе идеи «Во имя чести и достоинства человека» наша страна уверенно идет по пути коренных реформ, нацеленных на укрепление принципов демократии и справедливости»<sup>1</sup>. В нашем обществе, где прославляется человеческое достоинство, «Уникальное и неповторимое научное и духовное наследие наших великих предков должно стать для нас жизненно важной программой, находящейся в постоянном движении. Это бессмертное наследие с нами, всегда должно нас вдохновлять и всегда придает нам силы»<sup>2</sup>. Особенно: «Свобода нашей страны и нашего народа исследование научно-образовательного, литературно-художественного наследия джадидов, пожертвовавших своей жизнью ради счастья»<sup>3</sup> является одной из актуальных задач.

В ведущих научных центрах мира ведется научно-исследовательская работа по вопросам социально-политических движений начала XX века в Туркестане, возникновению и прекращению джадидского движения, созданию прогрессистами современных школ нового типа, объединений, обществ, организаций, их целям и задачам, деятельности работников нации в образовательной, издательско-печатной, театральной сферах.

Обретение Узбекистаном государственной независимости открыло совершенно новые страницы в социально-политической, экономико-культурной, нравственно-духовной и правовой сферах. Чувство законной гордости за богатое духовное и культурное наследие приводит к глубокому пониманию народа. Глубокое изучение ценного научно-творческого, идейного социального наследия наших великих мыслителей, превращение их сути и содержания в духовно-просветительское достояние нашего народа, исследование и пропаганда политических, государственно-правовых взглядов и идей стали политикой национальной государственности, гармонично сочетающейся с ценностями нашей независимости. В этой связи одной из актуальных задач остается исследование научно-просветительского, литературно-художественного наследия джадидов,

---

<sup>1</sup> Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций. <https://president.uz/ru/lists/view/6677>.

<sup>2</sup> Mirziyoev Sh . Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Тошкент: O'zbekiston. 2021. – В. 225.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маърифатпарвар жадидчилик ҳаракати намояндаларини муқофотлаш тўғрисида” 2020 йил 30 сентябрдаги Фармони // Халқ сўзи. 2020 йил 1 сентябрь.

отдавших свои жизни во имя свободы нашей Родины и счастья нашего народа<sup>1</sup>.

Данная диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Конституции Республики Узбекистан (2023 года), Указах Президента Республики Узбекистан «Об установлении Дня памяти жертв репрессий» (2001), «О награждении представителей просветительского движения джадидизма» (2020), постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об увековечении памяти патриотов, отдавших жизнь за свободу Родины и народа» (1999), распоряжении Главы государства «О дополнительных мерах по более глубокому изучению наследия и увековечению памяти жертв репрессий» (2020), постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан «О праздновании 110-летия со дня рождения Абдурауфа Фитрата» (1996), «О мерах по созданию Государственного музея памяти жертв репрессий при Кабинете Министров Республики Узбекистан и музеев Памяти жертв репрессий в структуре высших образовательных учреждений в регионах» (2017), «Об утверждении Концепции повышения эффективности духовно-просветительской и воспитательной работы в общеобразовательных учреждениях» (2022), а также в ряде других нормативно-правовых актов.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республике.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.** Возникновение и прекращение движения джадидов, создание прогрессистами современных школ, ассоциаций, обществ и организаций по-новому, их цели и задачи, научные исследования деятельности указанных представителей нации в сфере образования, издательского дела, журналистики, театроведения изучаются за рубежом ведущими мировыми научными центрами, а также глубоко исследуются в высших учебных заведениях, в том числе в Мичиганском государственном университете (США), Берлинском университете (Германия), Университете Мармара (Турция), Университете Чаннакале (Турция), Университете Анкары (Турция), Университет Гази (Турция), Азербайджанском университете языков (Азербайджанская Республика), Таджикском государственном национальном университете (Республика Таджикистан), Международном казахско-турецком университете имени Ходжи Ахмеда Яссави (Республика Казахстан), Институте государственной истории Казахстана (Республика Казахстан), Институте востоковедения Республики Казахстан имени Р.Б.Сулейменова (Республика Казахстан), осуществляется в учебном

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2020 года. О награждении представителей просветительского движения джадидизма // <https://president.uz/ru/lists/view/3860>.

<sup>2</sup> Перечень этих работ приведен в списке использованной литературы диссертации.

процессе международных, научных и образовательных учреждений, таких как Национальная академия наук Кыргызской Республики имени Б.Джамгерчинова (Кыргызская Республика).

